

YAPON “KOMIL INSON” KONSEPTSIYASINING G‘ARB MODELLARI BILAN QIYOSIY TAHLILI

Qurbonov Farhodjon Xabibloyevich

Alfraganus universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

ganbarefarhod@gmail.com

ORCID:0009-0005-8169-9937

Annotatsiya: Mazkur maqolada yapon falsafasida shakllangan “Komil inson” konseptsiyasi g‘arb ilmiy-falsafiy maktablari va shaxs kamoloti modellari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda yapon konseptsiyasining asosiy tamoyillari — uyg‘unlik, mehnatsevarlik, jamoaviylik va ma’naviy poklik g‘arb modellari, xususan, individualizm, ratsionalizm va shaxsiy erkinlikni ustuvor qo‘yuvchi yondashuvlar bilan solishtiriladi. Qiyosiy tahlil natijasida sharqona va g‘arbona qarashlarning o‘zaro farqlari va o‘xshash jihatlari aniqlanib, inson kamolotiga doir konseptual yondashuvlarning madaniyatlararo sintezi ilmiy jihatdan yoritiladi. Ushbu izlanish globalizatsiya sharoitida insoniy qadriyatlarni chuqurroq anglash va universal shaxs modeli shakllanishiga nazariy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: komil inson, yapon falsafasi, g‘arb modeli, ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar, shaxs kamoloti, ta’lim va tarbiya, madaniyatlararo farqlar, ijtimoiy ideal.

Аннотация: В данной статье концепция «Совершенного человека», сформировавшаяся в японской философии, подвергается сравнительному анализу с научно-философскими школами Запада и моделями личностного совершенствования. В исследовании рассматриваются основные принципы японской концепции — гармония, трудолюбие, коллективизм и духовная чистота — в сопоставлении с западными моделями, где приоритет отдается индивидуализму, рационализму и личной свободе. В результате сравнительного анализа выявляются сходства и различия восточных и западных представлений, а также научно освещается культурный синтез концептуальных подходов к совершенствованию личности. Проведённое исследование создаёт теоретическую основу для более глубокого осмысления человеческих ценностей в условиях глобализации и формирования универсальной модели личности.

Ключевые слова: совершенный человек, японская философия, западная модель, духовность, нравственные ценности, личностное развитие, образование и воспитание, межкультурные различия, социальный идеал.



Annotation: This article provides a comparative analysis of the concept of the “Perfect Human,” developed within Japanese philosophy, and the models of personal development proposed by Western philosophical traditions. The study examines the core principles of the Japanese concept — harmony, diligence, collectivism, and spiritual purity — in contrast with Western approaches that prioritize individualism, rationalism, and personal freedom. The comparative analysis identifies both similarities and differences between Eastern and Western perspectives, while also elucidating the cultural synthesis of conceptual approaches to human perfection. The research offers a theoretical foundation for a deeper understanding of human values in the context of globalization and contributes to the development of a universal model of personality.

Keywords: perfect human, Japanese philosophy, Western model, spirituality, moral values, personal development, education and upbringing, intercultural differences, social ideal.

Kirish

Inson kamoloti masalasi qadimdan Sharq va G‘arb falsafasining eng muhim mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Har bir madaniyat o‘zining ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy qadriyatlariga tayangan holda “komil inson” timsolini yaratgan. Yapon an’anaviy tafakkurida komillik tushunchasi samuraylik kodeksi, buddaviylik, shintoizm va konfutsiylik tamoyillariga tayanadi. G‘arb falsafasida esa ushbu masala Platonning “ideal inson” g‘oyalari, Aristotelning “fazilat etikasi” hamda keyingi davrlardagi humanistik qarashlar orqali shakllangan. Bugungi globallashuv davrida turli mintaqaviy konsepsiyalarni qiyosiy tahlil qilish insoniyatning umumiy qadriyatlarga asoslangan rivojlanish yo‘lini belgilashda dolzarbdir.

Mavzuning ahamiyati shundaki, yapon “komil inson” konsepsiyasi o‘zida intizom, jamoaga sodiqlik, mehnatsevarlik va tabiat bilan uyg‘unlik kabi jihatlarni mujassamlashtiradi. G‘arb modellari esa shaxs erkinligi, individual huquqlar va mustaqil fikrlashni ustuvor qiladi. Ushbu ikki turli yondashuvni o‘rganish orqali nafaqat falsafiy qarashlar, balki ijtimoiy taraqqiyot, ta’lim, menejment va axloqiy qadriyatlarning uyg‘unlashuvini ham kuzatish mumkin. Shu bois, ularni qiyosiy tahlil etish bugungi kunda jamiyatda barkamol shaxsni shakllantirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning amaliy natijasi shundan iboratki, yapon va g‘arb konsepsiyalarini solishtirish orqali komil inson modelining universal mezonlarini aniqlash mumkin. Bu esa ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni saqlagan holda



global yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, ushbu qiyosiy tahlil boshqaruv, liderlik, psixologiya va axloqiy tarbiya sohalarida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali tamoyillarni shakllantiradi. Natijada, insoniyatning umumiy taraqqiyotida sharqona va g‘arbona qadriyatlarning uyg‘unlashuvi asosida “komil inson” timsolini amaliy hayotga tatbiq etish imkoniyati kengayadi.

Adabiyotlar tahlili

Yapon “Komil inson” konsepsiyasining g‘arb modellari bilan qiyosiy tahlili mavzusida tadqiqot olib borishda adabiyotlarni tahlil qilish nihoyatda muhimdir. Chunki mavjud ilmiy manbalar orqali turli yondashuvlar, falsafiy qarashlar hamda metodologik asoslar o‘rganilib, mavzuning nazariy poydevori yaratiladi. Adabiyotlar tahlili tadqiqotchi uchun mavjud tajribalarni solishtirish, konsepsiyalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash hamda yangicha ilmiy xulosalarga erishishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

1. P.Kent “The Chrysanthemum and the Sword”.¹

Amerikalik antropolog Pauline Kent o‘zining mashhur “Japanese perceptions of The Chrysanthemum and the Sword” nomli tadqiqotida yapon madaniyatidagi shaxsiy kamolot va ijtimoiy axloqiy me‘yorlarni tahlil qilgan. U Yapon jamiyatini “uyat madaniyati” deb atab, bu tizimda komil inson tushunchasi jamiyatning umumiy qadriyatlariga mutlaq bo‘ysunish bilan belgilanadi, deb ta’kidlaydi. Benedictning izlanishlarida g‘arbdagi “ayb madaniyati” (guilt culture) bilan qiyosiy tahlil qilinadi. G‘arbdagi komil inson o‘zini ichki ong va mas’uliyat orqali shakllantirsa, Yaponiyada bu tushuncha tashqi baho va jamoaning fikriga tayangan. Kent yapon an‘analarida burch (giri) va insoniylik (ninjo) o‘rtasidagi muvozanatni “komillik”ning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatadi. Shu jihatdan, uning tadqiqoti yapon “komil inson” konsepsiyasini g‘arb individualistik modelidan tubdan farqlash imkonini beradi.

2. D.T.Suzuki “Zen and Japanese culture”.²

D.T.Suzuki – yapon faylasufi va buddolog bo‘lib, uning “Zen va yapon madaniyati” nomli asari yapon shaxs konsepsiyasining ma’naviy ildizlarini ochib beradi. Suzuki fikricha, yapon “komil inson” idealini anglashda Zen buddizmi muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, komillik tashqi qoidalarga emas, balki ichki uyg‘unlik va o‘zini tabiat bilan bir butun his qilishga asoslangan. Zen ta’limotida inson “bo‘shliq” (mu) va “ichki uyg‘unlik” orqali o‘zini to‘liq kashf etadi. G‘arb falsafasida, xususan

¹ Kent, P. (1999). Japanese perceptions of “The Chrysanthemum and the Sword”. *Dialectical Anthropology*, 24(2), 181-192.

² Suzuki, Daisetz T. *Zen and Japanese culture*. Vol.334. Princeton University Press, 2019.



ekzistensializmda, komillik ko‘proq shaxsiy tanlov va iroda bilan bog‘liq bo‘lsa, yapon an‘anasida inson o‘zini o‘z-o‘zidan ustun qo‘yishdan ko‘ra, tabiat va jamiyat bilan uyg‘unlashish orqali mukammallikka erishadi. Suzuki ilmiy merosi Sharq va G‘arb “komil inson” modellarini bir-biriga taqqoslashda asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

3. T.P.Kasulis “Intimacy or Integrity: Philosophy and Cultural Difference”.³

Amerikalik faylasuf T.P.Kasulis “Intimacy or Integrity” nomli tadqiqotida Sharq va G‘arb madaniyatlarini “yaqinlik” (intimacy) va “butunlik” (integrity) kategoriyalari orqali tahlil qiladi. Unga ko‘ra, yapon “komil inson” konsepsiyasi “yaqinlik” paradigmasi asosida shakllangan bo‘lib, inson jamiyat, tabiat va boshqalar bilan doimiy aloqadorlikda mavjud. G‘arb falsafasida esa komillik “butunlik”, ya‘ni mustaqillik va shaxsiy chegaralarni aniq belgilash bilan o‘lchanadi. Kasulisning ilmiy izlanishlari yapon axloqiy tizimining o‘ziga xosligi – insonning jamiyat bilan organik birligida ekanini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, uning tadqiqoti yapon “komil inson” konsepsiyasini g‘arbdagi liberal-humanistik model bilan qiyoslash uchun muhim nazariy asos yaratadi.

4. T.E.Maxey “The greatest problem: religion and state formation in Meiji Japan”.⁴

Yapon olimi o‘zining “Japanese Religion in the Meiji Era” asarida yapon modernizatsiyasi davridagi diniy-falsafiy o‘zgarishlarni tahlil qiladi. U “komil inson” konsepsiyasini buddizm, sintoizm va konfutsiychilik elementlarining sintezi sifatida ko‘radi. Tadqiqotchi ta‘kidlaganidek, Yaponiyada komillik nafaqat diniy, balki siyosiy-ijtimoiy jarayonlar bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Meiji davrida “komil inson” modeli davlatga sodiqlik, oilaviy burch va axloqiy poklik mezonlari asosida shakllantirilgan. G‘arbda esa bu davrda komillik tushunchasi asosan shaxs erkinligi, mustaqillik va demokratiya bilan bog‘liq edi. Tadqiqotchi ilmiy qarashlari yapon modelining o‘ziga xosligi – ijtimoiy hamjihatlik va jamoaga xizmat qilishni birinchi o‘ringa qo‘yishda ekanini ochib beradi. Shu jihatdan, u yapon va g‘arb “komil inson” talqinlari o‘rtasidagi asosiy tafovutlarni yaqqol ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar


Yapon “Komil inson” konsepsiyasi qadimiy falsafiy qarashlar va sharqona ma‘naviy qadriyatlar asosida shakllangan bo‘lib, insonning nafaqat jismoniy va intellektual, balki axloqiy-ruhiy jihatdan ham mukammalligini ko‘zda tutadi. G‘arb

³ Kasulis, Thomas P. Intimacy or integrity: Philosophy and cultural difference. University of Hawaii Press, 2002.

⁴ T.E.Maxey “The greatest problem: religion and state formation in Meiji Japan”. – BRILL, 2020. – T. 365.

modellari esa asosan individualizm, ratsional tafakkur va ijtimoiy samaradorlik tamoyillariga tayanadi. Ushbu tadqiqotda mazkur ikki yondashuvning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinib, ularning zamonaviy jamiyat rivojidadagi ahamiyati va ta’sir doirasi o‘rganiladi.


Yapon “kamil inson” konsepsiyasi turli omillar uyg‘unligiga asoslangan murakkab model sifatida shakllanadi. Diagrammada ko‘rsatilganidek, shaxs kamolotida uchta asosiy yo‘nalish – ta’lim omillari, tabiat omillari va tashqi zanjir muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim omillari insonning ijtimoiy muhitda o‘zini anglash, o‘z-o‘zini tushunish va sharqona qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlarda insonning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy ongini shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Tabiat omillari esa genetik xususiyatlar, fiziologik imkoniyatlar hamda sog‘liqni saqlash omillari bilan bog‘liq bo‘lib, shaxsning jismoniy va ruhiy rivojlanishini belgilaydi. Shaxsning tug‘ma salohiyati va nasldan-naslga o‘tadigan omillar uni yanada mukammal inson bo‘lish yo‘lida qo‘llab-quvvatlaydi.



1-rasm. Yapon “Kamil inson” konsepsiyasining vizual ko‘rinishi.⁵

⁵ P.Blosser. The Concept of “Person” in Keiji Nishitani and Max Scheler //International Philosophical Quarterly. – 2016. – T. 56. – №. 3. – C. 359-370.

Tashqi zanjir esa davlat ta’lim va tarbiya tizimi, ijtimoiy tamoyillar va yoshlarga beriladigan tarbiya jarayonini qamrab oladi. Bu omillar orqali jamiyat shaxsning ma’naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Ayniqsa, davlatning ta’lim siyosati va yoshlar bilan ishlash uslublari “komil inson” idealini shakllantirishda asosiy mexanizmlardan biri bo’lib xizmat qiladi. Ushbu modelda barcha omillar o’zaro chambarchas bog’langan: ta’lim orqali inson ijtimoiy jihatdan shakllansa, tabiat omillari uning jismoniy imkoniyatlarini mustahkamlaydi, tashqi zanjir esa jamiyat bilan uyg’un rivojlanish imkoniyatini beradi.



N-rasm. “Komil inson” yapon modelining umumiy ko’rinishi.⁶

⁶ Muallif ishlanmasi.

Yapon “komil inson” modelining bosh maqsadi – jamiyat uchun barkamol, intellektual, ma’naviy va jismonan sog‘lom shaxsni tarbiyalashdir. Ushbu model insonni nafaqat o‘z shaxsiy hayotini boshqarishga, balki ijtimoiy munosabatlarda ham faol, mas’uliyatli va maqsadli bo‘lishga yo‘naltiradi. Asosiy vazifa – shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning genetik salohiyati, ta’lim-tarbiyasi va jamiyatdagi ijtimoiy tamoyillarni uyg‘unlashtirish orqali ideal inson timsolini shakllantirishdir. Yapon konsepsiyasi insonni faqat bilimli yoki jismonan baquvvat emas, balki ijtimoiy mas’uliyatli, ma’naviy boy va o‘zini boshqara oladigan shaxs sifatida tasavvur qiladi.

Modelning asosiy vazifalari quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Ta’lim orqali shaxsning ijtimoiy ongi, axloqiy qadriyatlari va o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantirish.
2. Tabiat omillari asosida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy va ruhiy imkoniyatlarni qo‘llab-quvvatlash.
3. Davlat va jamiyat tomonidan yoshlarga beriladigan tarbiya orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish.
4. Jamiyat talablariga mos, intellektual salohiyatli va ma’naviy barkamol shaxsni voyaga yetkazish.
5. Insonni jismonan kuchli, ruhiy jihatdan bardoshli va ijtimoiy mas’uliyatli qilib tarbiyalash.

Yapon “komil inson” modeli jamiyat rivojiga bir necha yo‘nalishda ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Avvalo, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgani sababli ta’lim tizimida intizom, mehnatsevarlik, mas’uliyat va hurmat kabi qadriyatlar chuqur singdirilgan. Natijada, jamiyatda intellektual salohiyat ortib, fuqarolarning ongli, maqsadli va tartibli faoliyat yuritishiga imkon yaratgan. Tabiat omillariga tayangan holda jismoniy sog‘lomlikni ta’minlash millatning umumiy salomatlik darajasini oshirib, mehnat unumdorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi kunda Yaponiyada mavjud sog‘lom turmush tarzi va uzoq umr ko‘rish darajasi aynan ushbu konsepsiyaning samarali natijasi hisoblanadi.

Bundan tashqari, “komil inson” modeli davlat va jamiyat munosabatlarini uyg‘unlashtirib, yoshlarning tarbiyasini kuchli ijtimoiy tamoyillar asosida shakllantirgan. Natijada, yoshlar nafaqat bilimli, balki jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yadigan ma’naviy barkamol insonlar sifatida voyaga yetmoqda.

Shu jarayon orqali jamiyatda tartib-intizom, birdamlik, ijtimoiy mas’uliyat va innovatsion rivojlanishga intilish kuchaygan. Demak, ushbu model jamiyat taraqqiyotiga nafaqat individual insonni mukammallashtirish orqali, balki umumiy ijtimoiy tizimni yanada barqaror va samarali qilish orqali ham katta ijobiy ta’sir ko’rsatgan.

1-jadval

Yapon va G’arb konsepsiyalarining qiyosiy jadvali

Mezonlar	Yapon “Komil inson” konsepsiyasi	Antik G’arb (Platon, Aristotel)	Xristian an’analari (O’rta asr G’arb)	Renessans davri G’arb	Zamonaviy G’arb (XX–XXI asr)
Asosiy qadriyatlar	Jamoaga sodiqlik, uyg’unlik, intizom, kamtarlik	Aql, fazilat, jismoniy va ma’naviy uyg’unlik	Axloqiy poklik, diniy itoatkorlik	Universal bilim, san’at va ijodkorlik	Individualizm, erkinlik, kreativlik, muvaffaqiyat
Komillik manbai	O’zini jamiyat bilan uyg’unlashtirish, sabr-toqat va mehnat orqali o’zini takomillashtirish	Tabiiy aql-idrok va fazilatlarini rivojlantirish	Xudoga yaqinlashish, axloqiy-ruhiy poklanish	Bilim, san’at, inson qobiliyatlarini to’liq ochish	Mustaqil tashabbus, ta’lim, innovatsiya, shaxsiy mehnat
Shaxs va jamiyat munosabati	Shaxs jamoaga bo’ysunadi, jamiyat manfaati ustuvor	Shaxs polis (shahar-davlat) farovonligi uchun xizmat qiladi	Shaxs Xudoning irodasi va cherkov tartibiga bo’ysunadi	Shaxs ijod va fan orqali jamiyat rivojiga hissa qo’shadi	Shaxs erkinligi jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveri
Shaxsiy sifatlar	Kamtarlik, mehnatsevarlik, sabr, mas’uliyat, itoatkorlik	Fazilatli, adolatli, donishmand, jismonan sog’lom	Halollik, itoat, sabr, taqvo	Keng bilimli, ijodkor, o’zini har tomonlama rivojlantirgan	Liderlik, ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik
Komillikka erishish usuli	Doimiy intizom, an’anaga rioya qilish, jamoaviy uyg’unlik	Aqlni rivojlantirish, odil amaliyot	Diniy e’tiqod, ibodat, ruhiy tarbiya	Ta’lim, san’at, ilm-fan, tajriba	Shaxsiy maqsad qo’yish, erkin fikrlash, innovatsion faoliyat
Jamiyat ideali	Kollektiv uyg’unlik,	Polis (shahar-	Xristian jamoasi, ruhoni	Madaniyat va ilm-fan bilan	Erkin bozor, demokratiya, individual



	“hamma uchun yagona maqsad”	davlat) uyg‘unligi	nazoratdagi jamiyat	yuksaluvchi insoniyat	muvaffaqiyatga asoslangan jamiyat
Komil inson obrazi	Jamiyatga xizmat qiluvchi, o‘zini nazorat qiluvchi, ichki uyg‘unlikka erishgan shaxs	Dono faylasuf yoki ideal fuqarosi	Xudoga sodiq, axloqan pok “dindor inson”	Har tomonlama rivojlangan “universal inson” (Homo Universalis)	“Self-made man” – o‘z mehnati bilan yuksalgan, mustaqil va ijodkor inson

Yapon “Komil inson” konsepsiyasi va G‘arb modellari qiyosida ko‘rinadiki, sharqona yondashuv ko‘proq kollektivizm, ichki uyg‘unlik va jamiyat oldidagi mas’uliyatga tayanadi, shaxsni jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashgan holda kamolotga yetkazishni maqsad qiladi, G‘arb an‘analari esa davrlar kesimida turlicha shakllangan bo‘lib, antiklikda – aql va fazilat, o‘rta asrlarda – diniy-axloqiy poklik, renessansda – keng qamrovli bilim va ijodkorlik, zamonaviy davrda esa – individualizm, erkinlik va shaxsiy muvaffaqiyat asosiy mezon sifatida ko‘riladi. Demak, yapon modeli jamiyat barqarorligi va uyg‘unligiga, G‘arb esa shaxs erkinligi va ijodiy namoyoniga urg‘u beradi, ammo har ikkisi ham insonni komillikka eltuvchi turfa yo‘llarni ko‘rsatib, bir-birini to‘ldiruvchi falsafiy manbalar sifatida ahamiyatga ega.

Xulosa

Sharq va G‘arb tafakkuri inson komilligiga erishishda turli yo‘llarni taklif etadi: biri shaxsni jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish, intizom va ichki uyg‘unlikka asoslanar ekan, ikkinchisi shaxsning aqliy salohiyati, erkinligi, ijodkorligi va mustaqil muvaffaqiyatiga urg‘u beradi. Har ikki yondashuv insonni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi: sharqona qarashlar ijtimoiy barqarorlik va jamoaviy uyg‘unlikni mustahkamlasa, g‘arbona tamoyillar shaxsning ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Shu bois, mazkur qarashlarni bir-birini to‘ldiruvchi konsepsiyalar sifatida ko‘rish, zamonaviy sharoitda ularning integratsiyasi orqali inson komilligiga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.Ravshanova. Problem of the concept of personality and person in Japanese culture //Universiteti xabarlar, 2019, [1/1] ISSN 2181-7324. – 2019.

2. M.Burxonov “Yaponiya sivilizatsiyasining vujudga kelishi va taraqqiyoti”. Interdiscipline innovation and scientific research conference. – 2025. – T. 3. – №. 31. – C. 150-152.
3. P.Blosser. The Concept of “Person” in Keiji Nishitani and Max Scheler. International Philosophical Quarterly. – 2016. – T. 56. – №. 3. – C. 359-370.
4. Q.Wang “Psychological characteristics of the image of death in Japanese cultural and artistic works”. Revista Argentina de Clínica Psicológica. – 2020. – T. 29. – №. 1. – C. 1082.
5. H.Kanda “Narcissistic fantasy in adolescent patients in Japan”. Personality and conduct disorders. – Éditions GREUPP, 2000. – C. 455-460.



Research Science and Innovation House

